

UO‘K(UDC, УДК): 82-8N

YUNUS O‘G‘UZNING “AMIR TEMUR” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT TALQINI²⁷

Abbosov Xabibullo Abdullayevich
O‘zbekiston Qurolli Kuchlar Akademiyasi,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
E-mail: habbosov@gmail.com
Orcid ID: 0009-0006-4901-080X

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Maqolada taniqli Ozarbayjon adibi Yunus O‘g‘uzning “Yuksalish” va “Dunyoning hokimi” deb nomlangan ikki qismdan iborat romanida o‘rta asrlarda jahon tarixida kechgan olamshumul voqealarning badiiy talqini atroflicha tahlil etiladi. Asarda Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatining diplomat, harbiy strateg va adolatli davlat arbobi sifatidagi qiyofasi o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Muallif Temur yurishlaridagi diplomatik muloqotlar, harbiy taktik hiylalar, shahar va mudofaa inshootlari qurilishi, elchilar faoliyati, yozishmalar va tarixiy voqealarni turli hikoyalar, voqeiy lavhalar, sahnaviy epizodlar orqali tasvirlaydi. Muallif Temur obrazini yaratishda uning faqat harbiy yutuqlarini emas, balki madaniy merosga bo‘lgan e‘tibori, ilm-fan va ma‘naviyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini ham ko‘rsatishga alohida ahamiyat qaratgan. Shuningdek, romanda keltirilgan ma‘lumotlar o‘rta asr tarixchilari va tarixiy manbalar - temurnomalar, turli “Zafarnoma”lar hamda yozma xotiralar asosida badiiylashtirilgani qayd etiladi. Asar nafaqat Temur davri voqealarini, balki o‘rta asr diplomatiyasi, harbiy-siyosiy munosabatlar va madaniy hayotning o‘ziga xos jihatlarini ham yoritib berishi bilan ahamiyatlidir. Maqolada qiyosiy-chog‘ishtirma, biografik va lingvosemantik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Xulosalarda keyingi davr turkiy tilli xalqlar adabiyotida Markaziy Osiyo tarixida o‘tgan mashhur tarixiy shaxsiyatlar mavzusining chuqur o‘rganilishi va soha olimlari oldida turgan vazifalar va takliflar bayon etilgan.	Yunus O‘g‘uz, Amir Temur, temurnoma, “Zafarnoma”, diplomatiya, harbiy strategiya, madaniy meros, elchilar, mudofaa inshootlari, yozishmalar, harbiy hiyla, shahar qurilishi, tarixiy roman, badiiy ifoda. Received: August 19, 2025 Accepted: September 14, 2025 Available online: November 16, 2025

²⁷ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Abbosov X. Yunus O‘g‘uzning “Amir Temur” romanida tarixiy haqiqat talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 392-404.

INTERPRETATION OF HISTORICAL TRUTH IN YUNUS OGHUZ'S NOVEL AMIR TEMUR

Abbasov Khabibullo Abdullaevich

Military Academy of Uzbekistan,

University of Military Security and Defense

E-mail: habbosov@gmail.com

Orcid ID: 0009-0006-4901-080X

ABSTRACT

The article analyzes the artistic interpretation of world-historical events of the Middle Ages in the two-part novel “*Rise*” and “*Ruler of the World*” by the prominent Azerbaijani writer Yunus Oghuz. The author vividly portrays the figure of Amir Temur (Tamerlane) as a diplomat, a military strategist, and a just statesman. The novel depicts diplomatic negotiations, military stratagems, the construction of cities and defensive fortifications, the activities of envoys, and official correspondence, presented through various episodes, narratives, and scenes. In creating the image of Timur, the author pays special attention to his charitable activities in the field of preserving centuries-old cultural heritage and developing science. It is emphasized that the storyline is largely based on medieval chronicles, *Temurnamas*, and different versions of *Zafarnamas*. The novel is significant not only as a literary representation of the Timurid era but also as a valuable reflection of medieval diplomacy, military-political relations, and cultural life.

The article uses methods of comparative, biographical and linguosemantic analysis. The conclusions and recommendations propose upcoming tasks for scientists in the field of appropriate and systematic study of the history of outstanding personalities of Central Asia.

KEY WORDS

Yunus Oghuz, Amir Temur, Temurnama, Zafarnama, diplomacy, military strategy, cultural heritage, envoys, defensive constructions, correspondence, military stratagem, urban development, historical novel, literary interpretation.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРАВДЫ В РОМАНЕ ЮНУСА ОГУЗА “АМИР ТИМУР”

Аббосов Хабибулло Абдуллаевич

Военная Академия Узбекистана,

Университет военной безопасности и защиты

E-mail:habbosov@gmail.com

Orcid ID: 0009-0006-4901-080X

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье рассматривается художественная интерпретация всемирно-исторических событий эпохи Средневековья в двухчастном романе известного азербайджанского писателя Юнуса Огуза - «Возвышение» и «Властелин мира». Автор романа по-новому раскрывает личность великого Сахибкирана Амира Темура как дипломата, военного стратега и справедливого государственного деятеля. В произведении в многочисленных эпизодах, рассказах и сценах изображены дипломатические переговоры, военная тактика, строительство городов и оборонительных сооружений, деятельность послов и дипломатическая переписка. Создавая образ Тимура, автор уделяет особое внимание его благотворительной деятельности в области сохранения многовекового культурного наследия и развития науки. Отмечается, что повествование в романе основано на свидетельствах средневековых историков, и многочисленных темурнаме и «Зафарнаме». Анализируемое в статье произведение имеет значение не только как художественное отражение эпохи Темура, но и как источник, раскрывающий особенности средневековой дипломатии, военно-политических отношений и культурной жизни. В статье использованы методы сравнительно-сопоставительного, биографического и лингвосемантического анализа. В выводах и рекомендациях сформулированы задачи, на решении которых учёным-литературоведам необходимо сосредоточить внимание в целях системного изучения истории выдающихся личностей Центральной Азии.	Юнус Огуз, Амир Темур, темурнаме, «Зафарнаме», дипломатия, военная стратегия, культурное наследие, послы, оборонительные сооружения, переписка, военные уловки, градостроительство, исторический роман, художественная интерпретация.

KIRISH

Buyuk jahongir obrazining turkiy xalqlar, xususan, Ozarbayjon adabiyotida yaratilishi haqida soʻz borar ekan, qiziqarli maʼlumotlar yuzaga chiqadi. Ozarbayjon adabiyotida Sohibqiron Amir Temur timsoli tarixiy haqiqat va badiiy tafakkur uygʻunligida namoyon boʻlib, u koʻp qirrali obraz sifatida koʻzga tashlanadi. Xususan, roman va qissalarda, doston va dramatik asarlarda, shuningdek, sheʼriyat namunalarida uning shaxsiyati oʻziga xos talqin qilinadi. Bu asarlarda buyuk Sohibqiron kuch-qudrat, aql-zakovat, jasurlik, vatanparvarlik va adolatparvarlik kabi oliy fazilatlar sohibasi sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, uning betimsol siyosiy tafakkuri, davlat boshqaruvidagi tajribasi, harbiy-diplomatik iqtidori va tadbirkorligiga yuksak baho beriladi.

Ozarbayjon yozuvchilari Amir Temurning shaxsiyati orqali xalq ozodligi, millat taqdiri va yurt ravnaqi kabi gʻoyalarni ilgari surganlar. Uning obrazi orqali mualliflar jahon tarixidagi tub burilish nuqtalari, madaniy-maʼnaviy jarayonlar va siyosiy munosabatlarning mohiyatini ochib berishga intiladi. Shuning uchun ham Sohibqiron timsoli adabiy jarayonda nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

XX asr Ozarbayjon badiiy adabiyotida Buyuk jahongir timsoli turkiy xalqlar birligining ifodachisi sifatida talqin etildi. Ozarbayjonlik Remiz Askar, A. Ismoilov, Almaz Ulvi Binnatova, Yashar Qosimbeyli kabi adiblar va shoirlar uning yirik harbiy yurishlari, diplomatik faoliyatini oʻz asarlarida keng yoritdilar. Bu obrazning oʻziga xos ifodasi ozarbayjonlik qalam ahlining Sohibqiron harbiy taktikasi mukammalligi, uning siyosiy-madaniy sohalardagi aql-zakovati, tadbirlarining betakrorligini badiiy tasvirlab berganlarida koʻrinadi.

Zamonaviy ozarbayjon adabiyotida Amir Temur obrazi talqinlari vositasi bilan ikki turkiy tilli xalqning tarixiy birligi, madaniyatlar uygʻunligi, tarixiy merosning umumiyliги bayon etiladi. (Nagiyeva Dj., 1996, 176; Novichev A.D., <https://new.samdu.uz>.) Ozarbayjonlik olimlar I.G.Aliyev, F.M.Aliyevlar muharrirligi ostida nashr etilgan “Istoriya Azerbaydjana”, A.D.Novichevning

“Istoriya Tursii” kabi asarlarida Amir Temurning shu davlatlar bilan olib borgan siyosiy-iqtisodiy madaniy aloqalari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Taniqli adib Yunus O‘g‘uz o‘zining “Amir Timur”(Yunus O‘g‘uz., 2014) romanida Sohibqiron hayoti va faoliyati, davlat arbobi sifatidagi tarixiy shaxsiyati haqida badiiy obrazlar orqali fikr yuritadi. Asarda Sohibqironning mashhur harbiy yurishlari, siyosiy-g‘oyaviy maqsadi va diniy aqidasi, ma’naviy dunyoqarashi, insoniy fazilatlari qiyosiy-tahliliy metod (Xalliyeva G., 2020, 15-18) vositasida “Temur tuzuklari” asari muqoyasasida yoritiladi.

MUHOKAMA

Asar tarixiy-badiiy uslubda yozilgan dilogiya bo‘lib, “Yuksalish” va “Dunyoning hokimi” nomli ikki qismdan iborat. Unda buyuk Sohibqironning bolalik va yoshlik yillari, turkistonlik zodagonlar naslidan ekanligi, vatanida siyosiy beqarorlik hukm surgan, begona bosqinchi elga tobelik yaqqol namoyon bo‘lgan sharoit fonida shakllangan shaxs sifatida ko‘rsatiladi. U kichikligidanoq o‘z atrofida yuz berib turgan adolatsizlik, ma’naviy mahdudlikni ko‘rib ulg‘ayadi. Rahbarlik mahorati va harbiy tayyorgarlikni yoshlik davridanoq o‘z amaldor otasi Muhammad Tarag‘aydan o‘rgangan Timur tezda vatani ozodligi va daxlsizligiga erishish maqsadida siyosiy muhorabalar sahnasiga chiqadi. Uning bu jarayonda kuchli harbiy iste’dodi, siyosiy zakovati va adolatparvarligi el orasida yoyiladi. Uning “Kuch – adolatda!” shiorini dasturulamal qilganligi va shu g‘oyaviy bayroq ostida harakat qilganligi romanda qiziqarli bayon etilgan.

Asar tuzilishi bir tomondan memuar shaklini ham eslatadi. Unda Sohibqiron hayotidan hikoyalar dramatik voqea-hodisa tafsilotlari bilan birga bayon etilib, muallifning nasihatlar, asos solgan qonuniyatlari bayon etiladi, tushuntiriladi. Asar syujetida badiiy tasvir uslubi yetakchilik qiladi, ammo unda badiiy obrazlar, timsollar, epizodlar vositasida buyuk amirning o‘z avlodlariga qilgan muhim va jiddiy maslahatlari, tavsiyalari bayon etiladi. Bu nasihat va tavsiyalarida Sohibqiron har qanday mushkul holatda ham adolatli bo‘lish, sabr va kechirimlilikni o‘zi uchun asosiy axloqiy tamoyil qilib olish va halol-pok hayot tarziga rioya qilish kabi aniq ma’naviy-axloqiy qarashlarini bayon etadi.

Romanda Sohibqironning davlatchilik faoliyati ham ancha keng yoritiladi. Uning o'z vatani Turkiston va unga tutash hududlarda yagona qudratli markazlashgan davlat barpo etish maqsadi Xorazm, Eron, Hindiston, Iroq, Suriya va boshqa o'lkalarga qilgan yurishlari tasvirida ko'rinadi.

Yunus O'g'uz asarida buyuk Sohibqironni faqatgina fotih, sarkarda sifatida emas, balki yirik siyosatdon davlat arbobi, diplomat va taktik, ilm-fan, me'morlik-arxitektura va madaniyat homiysi sifatida tasvirlaydi. Romanda qiziqarli epizodlarda sarkardaning yurtni obod qilish, ilm-fanni rivojlantirish, odil huquqiy tizimni barpo etish, qurilish va obodonchilik ishlarini jadal olib borish kabi faoliyati yoritiladi.

Adib Sohibqironning yuksak insoniy fazilatlari talqiniga alohida e'tibor qaratadi. Buyuk jahongirning dono siyosati, g'ururi va qat'iyati, g'ayrat-shijoati tasvirlari bilan bir qatorda uning chuqur mulohazali davlat rahbari kabi sifatlariga urg'u beriladi. Sohibqironning poklik va islomiy tartib-intizomga asoslangan oilaviy hayoti, farzandlari va atrofini qurshagan barcha yaqin kishilariga bo'lgan munosabati qiziqarli ma'lumotlar asosida yoritiladi.

Yunus O'g'uz romanida Sohibqiron Amir Temurning hayotiy tamoyillari sifatida uning aql va tafakkur qudratiga ishongani, ilm va ma'rifat yoyishning ahamiyatiga jiddiy e'tibor berganligi turli voqealar tafsilotlari, epizodlar, tarixiy obrazlar vositasida tasvirlanar ekan, muallifning bu hayotiy hikoyalarni bevosita "Temur tuzuklari" ga (Amir Temur., 1991, 196) tayangan holda yaratganligi ma'lum bo'ladi. Muallif roman voqealarini Sohibqironning o'z "Tuzuklari" da keltirilgan tezislari asosida shakllantiradi. Xususan, romandagi Sohibqironning aql va tafakkur qudratiga ishonchi tamoyillarini sahnalashtirib, badiiy obrazlar orqali ifodalar ekan, "Tuzuklar" da keltirilgan quyidagi fikrlarga asoslanadi:

"Men o'z hayotim mobaynida hech bir dunyoviy narsaga qat'iy e'tiqod qo'ymadim. Ammo besh narsani iymonim va e'tiqodim asosi deb bildim:

- Alloh – ul har narsaga qodir kuch!
- Tafakkur va mushohada qobiliyati dunyoviy hayotda najot manbai. Bu

Allohning tanlagan bandalariga yuksak in'omidir;

- Qilich – ul yigitning yo‘ldoshidir;
- Iymon – ul insonni barcha nafas oluvchi jonli mavjudotdan ajratib turuvchi oliy ne‘mat;
- Bitik (kitob) – barcha bunyodkorlik, barqarorlik, adolat, farovonlik va ilm-u donishmandlikning asosidir” (Amir Temur., 1991, 87).

Ilmiy salohiyat va tafakkur qobiliyati, aql-u idrok va ilmga, ilm ahllariga nisbatan bo‘lgan chuqur hurmat va e‘tibor, saxovatpeshalik Sohibqironning davlat boshqaruvidagi eng asosiy kuch-qudrati edi.

Roman Sohibqiron vafoti va uning avlodlariga qoldirgan ko‘p qirrali moddiy va ma‘naviy merosi tafsilotlari tasvirlari bilan yakun topadi. Muallif Sohibqironning vafotidan keyingi temuriylar davri voqea-hodisalari tafsilotlarini ham qisqacha yoritadi va buyuk shaxsiyatning dunyo tarixidagi beqiyos va betakror o‘rni haqida fikr-mulohazalarini bayon etadi.

Roman muallifi Sohibqiron Temur hayoti va faoliyatida ilm, aql va donishmandona tafakkurning asosiy o‘rinda turganligini e‘tirof etar ekan: “Temurning nazarida ilm-fan inson hayotini yorituvchi nur edi. Haqiqatan ham, hukmdor ta‘riflaganidek, kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishmandlikning asosidir, u hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”, (Yunus O‘., 2014, 88) deb yozadi romanist adib.

Sohibqiron Temurning jangovar strategiyaga aql bilan yondashuvini, bu sohadagi tadbirliligini, qo‘mondon va lashkar boshliqlarini o‘zining tayanuvchi ishonchli kuchi sifatida tasavvur etganligi roman muallifi sarkardaning o‘z so‘zlari bilan ifodalaydi: “Yaxshi lashkarboshi o‘zini va qo‘l ostidagi to‘qqiz sipohiy favjini bir tanadek ko‘rsin, ularni shu yaxlit tananing qo‘li, oyog‘i, boshi, ko‘kragi va boshqa a‘zolaridek ishlatib, kurashuvchi bir pahlavondek hisoblasin” (Yunus O‘., 2014, 124). Muallif Sohibqironning bu fikrlarini kengaytirar ekan, uning askar boshliqlarining jang taqdiridagi muhim mavqei haqidagi fikrlarini aynan keltiradi: “Lashkarboshining o‘limi O‘rduga badnomlik keltiradi, g‘anim lashkarining g‘alabasiga sabab bo‘ladi” (Yunus O‘., 2014, 132). Yunus O‘g‘uz asari qahramoni va uning mashhur lashkarini mubolag‘asiz, ammo hayrat bilan: “... ular aql-hush

egalari, bazm-u-razm sherlari, mahoratli sarkarda, dushman lashkari to‘pini buzib, uni mag‘lub etuvchi kishilar edilar”, ta’riflaydi. Ushbu keltirilgan iqtiboslardan ma’lum bo‘layotganidek Yunus O‘g‘uz o‘z romanida Sohibqiron Amir Temurni vatanparvar jasur sarkarda, mahoratli qo‘mondon va asosan chuqur tafakkur egasi bo‘lgan siyosatdon sifatida tasvirlaydi.

“Tuzuklar” va romanda Samarqand shahri mavzusi, uning yangicha usulda qayta bunyod etilishi ancha mufassal bayon etiladi. Ma’lumki, Samarqand shahar sifatida miloddan avval 6-5- asrlarda shakllangan bo‘lib, Zarafshon vodiysi yuqori qismining markazi hisoblanar edi. Aleksandr Makedonskiy 328-326-yillarda bu shaharni bosib olganida, Sug‘diyonaning mustahkam shahrining go‘zalligidan hayratga tushgan edi. Bu haqda Gerodot o‘z asarlarida xabar beradi (Mo‘minov I., 1968, 47). Shundan so‘ng arablarning islom fathiyoti munosabati bilan bu yurtga kelishlari, keyinchalik mo‘g‘ul bosqinchilarining tajovuzi shahar qiyofasini ancha o‘zgartirib yuborgan edi. Sohibqiron Amir Temur o‘z davlati uchun Samarqandni poytaxt qilishni ixtiyor etar ekan, bu shahardagi ahvolni butunlay o‘zgartirib yubordi. U Samarqandda o‘zining qarorgohi – rezidensiyasi – Ko‘ksaroyni qurdirtdi. Shuningdek, Bibixonim masjidini, Shohizinda mavzoleyini, shahar atrofida o‘n ikki bog‘ va saroylar qurdirtdi. Yo‘llar qurildi, Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryo ustidan ko‘priklar qurildi, kanallar qazdirildi. Shahar tipidagi qishloqlar, karvonsaroylar, irrigatsiya inshootlari barpo etildi. Madrasalar, maqbaralar, hammomlar qurilishi misli ko‘rilmagan miqyosda amalga oshirildi. Bu bunyodkorlik ishlariga mahalliy arxitektorlar – me’morlar, ustalardan tashqari, Sohibqiron zabt etgan mamlakatlardan keltirilgan mashhur me’morlar, quruvchi-ustalar jalb etildi. Samarqandning butunlay yangi ruh va uslubda yangidan bunyod etilganligini Sohibqiron Temur zamondoshlari bo‘lmish tarixchilar (Shomiy Nizomiddin., 1997, 487; Yazdiy Sharafiddin., 1941, 385; Ibn Arabshoh., 1992, 1-2, 545) ham o‘z asarlarida qayd etadilar. XIV-XV asrlarda yozilgan Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiylarning “Zafarnoma” dostonlarida Sohibqiron Amir Temur hayoti va harbiy yurishlari, davlat qurishdagi siyosati faoliyati haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning ”Samarqandga, Amir

Temur saroyiga sayohat kundaligi” asarida (de Klavixo Rui Gonzales., 1990, 228) buyuk ajdodimizning jahon diplomatiyasi tarixidagi oʻrni yorqin badiiy til bilan ifodalanadi.

Buyuk Sohibqironning betimsol bunyodkorlik faoliyati temuriylar davrida yaratilgan tarixiy-badiiy asarlarda, dostonlarda ham oʻz ifodasini topgan. Jumladan, Mir Alisher Navoiy oʻzining “Xamsa” si tarkibiga kirgan “Saddi Iskandariy” (Navoiy., 1999, 528) dostonida Chin xoqoni amalga oshirgan mudofaa inshootlarini va boshqa meʼmoriy obidalarni shunchalik jonli, hayotiy tasvirlaganki, Amir Temurning harbiy faoliyatidan xabardor kishi bunga amin boʻladi. Bugina emas, Xoqonning Iskandar hordigʻi uchun tayyorlangan yoki tanlagan bogʻi, uning oʻrtasida qurdirgan binosi ham Amir Temurning Samarqanddagi mashhur Bogʻibaland va unda qurilgan Chinnixona esa Mirzo Ulugʻbek qurdirgan Chinnixona binosini beixtiyor esga soladi (Qarang: Salohiy., 2007, 39-51).

Samarqand shahrining yangi uslubda qaytadan bunyod etilishi bilan bogʻliq tarixiy maʼlumotlar, voqea-hodisalar, epizodlar Yunus Oʻgʻuzning romanida ham aniq va mufassal tarzda badiiy ifoda etilgan.

Romanda muallif Sohibqiron Amir Temur Samarqandga kelganda, eski shahar – Afrosiyob moʻgʻullar bosqinidan keyin qariyb vayron boʻlgan ekanligini tasvirlaydi. Amir Temur eski shaharni qayta tiklashdan koʻra, yangi bir shahar bunyod etishni afzal koʻradi. Shu maqsadda Sohibqiron 1370-yilda Samarqandda katta Qurultoy chaqirib, yangi poytaxtni qurish masalasini muhokama qiladi.

Yangi shahar qurilishida Sohibqiron shaharning mudofaasi sohasiga katta eʼtibor qaratadi. Shu maqsadda eski shahar gʻarbidagi tepalikda yangi Ark quriladi va atrofi ikki qator mudofaa devori bilan oʻrab olinadi.

Shundan soʻng, oradan yigirma yillar oʻtgach, Sohibqiron Temur rafiqasi Bosh malika boʻlmish Saroymulxonim – Bibixonim uchun masjid qurdirishga ahd qiladi. Bibixonim masjidi qurilishiga eng tajribali meʼmorlar, muhandislar va naqqoshlar jalb etiladi. Bu masjid dunyodagi eng yirik jome masjidlaridan biri boʻlib qoladi.

Yunus Oʻgʻuz Sohibqiron tomonidan Samarqand shahri atrofida koʻplab jannatmisol bogʻlar barpo etilganligini tasvirlaydi. Romanda bu bogʻlarning nomlari

– “Bog‘ibaland”, “Bog‘ibihisht”, “Bog‘i dilkusho”, “Bog‘i shamol”, “Bog‘i nav” ekanligini aniq keltiradi. Bu bog‘lar ichida hashamatli saroylar favvoralar, hayvonot bog‘chalari bo‘lganligi tasvirlangan. Bu inshootlarni qurishda Xorazm, Eron, Ozarbayjon kabi hududlardan me‘morlar jalb etilgan.

Sohibqironning Samarqandni obod va betimsol bir shahar sifatida dunyoga tanilishida unda qad ko‘targan moviy koshinlar bilan bezatilgan masjidlar, madrasalar, osmono‘par minoralarning o‘rni katta bo‘lgan. Shahar atrofida qishloqlar bunyod etilgan, ularga dunyodagi mashhur obod shaharlarning nomlari – Damashq, Qohira Sheroz, Madrid kabi nomlar berilgan.

Romanda Sohibqironning xotinlari – malikalar tasviriga ham keng o‘rin berilgan. Xususan, “Katta xonim” – “Bibixonim” nomi bilan mashhur bo‘lgan Saroymulkxonim buyuk Sohibqironning harbiy yurishlarida faol ishtirok etgan rafiqasi bo‘lib, u dono maslahatlari bilan hukmdorni doimo qo‘llab-quvvatlab turgan. U Sohibqiron yurishlarida yuzaga kelgan siyosiy (bir bosib olingan mamlakat arboblari bo‘ysundirishi mushkul bo‘lgan vaziyatda va b.) va moliyaviy (Eron fathida mablag‘ yetishmovchiligi yuzaga kelgan vaziyatda) mushkul hollarda o‘zining donoligi, tajribasi va tadbirkorligi bilan hukmdorni qiyin ahvollardan chiqishiga ko‘mak bergan.

XULOSA

Turkiy xalqlar, xususan, ozarbayjon adabiyotida Sohibqiron Amir Temur obrazi, asosan, real tarixiy voqea-hodisalarga asoslangan roman va qissalar, dostonlar, dramatik asarlar va she‘riyatda yoritilgan. Bu asarlarda buyuk Sohibqiron kuch-qudrat, aql-zakovat, vatanparvar va adolatparvar shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning betimsol siyosiy tafakkuri va tadbirkorligiga yuksak baho beriladi. XX asr Ozarbayjon badiiy adabiyotida Buyuk jahongir timsoli turkiy xalqlar birligining ifodachisi sifatida talqin etildi.

Yunus O‘g‘uzning “Amir Temur” asarida muallif Sohibqiron Amir Temur timsolida milliy g‘urur, yuksak ma‘naviyat va barqaror adolat timsollarini yaratgan. Romanning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi va mohiyati shundan iborat bo‘lib, u “Temur tuzuklari” asarida ifodalangan siyosiy, ma‘naviy va axloqiy tamoyillarni badiiy

obrazlar orqali qayta tiklaydi. Asar orqali o'quvchi Temur shaxsiyatidagi betakror strategik fikrlash, davlat boshqaruvidagi adolatparvarlik va insof, shuningdek, xalq manfaatini hamisha ustuvor qo'yish kabi fazilatlarni ko'radi.

Muallif Temur obrazini yaratishda uning faqat harbiy yutuqlarini emas, balki madaniy merosga bo'lgan e'tibori, ilm-fan va ma'naviyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ham ko'rsatishga alohida ahamiyat qaratgan. Shu jihatdan roman nafaqat tarixiy voqealarning badiiy talqini, balki milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va tarixiy xotirani asrab-avaylash yo'lidagi muhim ijodiy namuna sifatida ahamiyat kasb etadi.

Sohibqiron Amir Temur timsolida "Amir Temur" romani muallifi qadimiy tarixiy turkiy millat boshida turgan kuch-qudratli, yuksak ma'naviyatli, qat'iyatli, odil hukmdor qiyofasini yoritib beradi. Bu romanda tarixiy ma'lumotlar, hujjatlar chuqur badiiy tahlil qilinadi, badiiy uslub bilan yoritiladi va badiiy til bilan bayon etiladi.

Yakuniy xulosa shundan iboratki, keyingi yarim asrga yaqin vaqt davomida jahonshumul shuhrat va e'tirofga ega Buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temurning tarixiy xizmatlari, betimsol shaxsiyati va yuksak ma'naviy dunyoqarashini asl mohiyati nuqtayi nazaridan tadqiq qilish imkoniyati tug'ildi. Ma'naviyatimizning so'nmas manbai bo'lgan muqaddas islomiy manbalar, ilmiy va adabiy asarlar, safarnoma va kundaliklar orqali Buyuk sarkarda va davlat arbobi keng ilmiy-siyosiy dunyoqarashining tadqiq etilishi (Keren L., 2016,85; Pugachenkova G., 1996,244; Rtvalidze E., 2016, 235) tarix va adabiyotshunoslik fanlariga yangicha ma'nomazmun olib kirdi. Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati va davlat boshqaruvi, ijtimoiy-ma'rifiy qarashlarida yuksak umuminsoniy qadriyatlar talqinini o'rganish orqali bugungi davrimiz ma'naviy ehtiyojiga aylangan inson ma'naviy kamoloti haqidagi g'oyalarni tadqiq va targ'ib qilish imkoniyati tug'ildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. MAT, 20 tomlik. 10-t. – Toshkent, 1999.
2. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent, 1991.

3. Keren Lyusen, Saidov Akmal. Amir Temur va Fransiya. – Tashkent, 2016.
4. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent, 1968.
5. Nagiyeva Dj. Bakinskiye rukopisi Alishera Navoi. – Baku, 1986.
6. Novichev A.D. Istoriya Tursii. - <https://new.samdu.uz>.
7. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-2-kitob. – Toshkent, 1992.
8. Pugachenkova G. Temurning memoriy merosi. – Toshkent, 1996.
9. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. – Toshkent, 1990.
10. Rtvalidze E. Amir Temur. – Tashkent, 2016.
11. Salohiy I. Ezgu so‘z qudrati. – Samarqand, 2002.
12. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent, 2020.
13. Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma // Tarjimon A. Jo‘rayev. – Toshkent: Sharq, 1997.
14. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Leningrad, 1941.
15. Yunus O‘g‘uz. Amir Temur. Roman: Yuksalish. Dunyoning hokimi. – Toshkent, 2014.

REFERENCES

1. Alisher Navoiy. (1999). MAT, 20 tomlik. 10-t. Toshkent.
2. Amir Temur. (1991). Temur tuzuklari. Toshkent.
3. Keren, L., & Saidov, A. (2016). *Amir Temur va Frantsiya* [Amir Temur and France]. Tashkent.
4. Muminov, I. (1968). *Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli* [The place and role of Amir Temur in the history of Central Asia]. Tashkent.
5. Nagiyeva, J. (1986). *Bakinskie rukopisi Alishera Navoiy* [Baku manuscripts of AlisherNavoi]. Baku.
6. Novichev, A. D. (n.d.). *Istoriya Turtsii* [History of Turkey]. Retrieved from <https://new.samdu.uz>
7. Ibn Arabshah. (1992). *Amir Temur tarixi* [History of Amir Temur]. Tashkent.

8. Pugachenkova, G. (1996). *Temurning memoriy merosi* [The memorial heritage of Temur]. Tashkent.
9. Rui Gonsales de Klavixo. (1990). Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. Toshkent.
10. Rtvalidze, E. (2016). *Amir Temur*. Tashkent.
11. Salohiy, D.I. (2002). *Ezgu soʻz qudrati* [The heat of freedom]. Tashkent.
12. Khallieva, G. (2020). *Qiyosiy adabiyotshunoslik* [Comparative literary studies]. Tashkent.
13. Shomiy, N. (1997). *Zafarnoma* (A. Joʻrayev, Trans.). Tashkent: Sharq.
14. Sharafiddin Ali Yazdi. (1941). *Zafarnama*. Leningrad.
15. Oghuz, Y. (2014). *Amir Temur: Roman: Yuksalish. Dunyoning hokimi* [Amir Temur: Novel: Rise. RuleroftheWorld]. Tashkent.